



13.00.00	13.00.06	01.00.00
13.00.01	13.00.07	02.00.00
13.00.02	13.00.08	03.00.00
13.00.03	13.00.09	09.00.00
13.00.04	07.00.00	10.00.00
13.00.05	19.00.00	11.00.00

№5/2025

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,
14-may, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Qirg'izboyev Abdug'afvor Karimjonovich – Tarix fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Umarova H.O' – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)
Panjjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Qirg'izboev Abdug'affor Karimjonovich – Doctor of Historical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №C-5669245
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310



MUNDARIJA

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida maqol va rivoyatlardan foydalanish texnologiyasi	12
Azimova Nodira Xikmatovna	
Matematikada o'tkaziladigan sinfdan tashqari viktorina, matematik ertalik va matematik musobaqalarni tashkil etish.....	15
Azizova Dilnoz Yo'ldashevna	
Adabiy ta'limda fanlararo integratsiyani rivojlantirishda didaktik o'yinlarning o'rni	19
Hasanova Bahora Isa qizi	
Boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi kognitiv-pragmatik mashqlar turlari va mazmuni.....	22
Jahonova Nargiza Yunus qizi	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanidan uyga vazifalarni tashkil etishda QUIZ testlardan foydalanish	28
Jamolova Nodirabegim Jobir qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishning dolzarbligi	32
Mazgarova Durdona Shuxrat qizi, Mirzakamolova Komola Xojiakbar qizi	
Understanding and Using Articles in English: A Practical Approach.....	35
Mustafojeva Nigina Shuhrat kizi	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari.....	40
Nosirova Dilfuza	
Ona tili va o'qish savodxonligi fanining boshlang'ich ta'limdagi o'rni va ahamiyati	45
Otamurodova Mahfirat Husan qizi	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasidagi qaror va qonunlari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuv	49
Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Po'latova Mahfuza To'lqin qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kasbiy etikasi va madaniy salohiyatini shakllantirish omillari... 52	
Qodirova Fotima Rashidovna	
Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalarining qiyosiy tahlili	55
Shokirova Madinabonu Shomurod qizi	
Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda mental arifmetikaning o'rni.....	59
Sulaymonova Nigora Olimjon qizi	
Boshlang'ich ta'limda ta'lim samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish mexanizmlari (Singapur ta'lim tizimi misolida).....	63
Taniqulova O'g'iloy Fahriddin qizi	
SWOT texnologiyasi asosida talabalarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish modeli.....	66
Abdusalomova Saidabonu Ziyovuddin qizi	
Механизмы формирования характера трудолюбия в младшем школьном возрасте	69
Зияев Амаль Толибович	
Современные методы обучения иностранному языку в начальных классах	72
Косимова Шахризода Бахромжон кизи, Рузметова Хилола Абдушариповна	
Ислам в духовных исканиях льва толстого: уважение великого писателя к религии и пророку	75
Мамасодикова Махзуна Жалол кизи	
Проблемы и особенности перевода с узбекского языка на русский: анализ ошибок и пути решения	78
Холмуродова Дилдора Хусниддиновна	
Развитие русского языка в современном мире	80
Чернова Татьяна Алексеевна, Темиров Руслан Расул угли, Хасанов Сайхунбек Килич угли	
Ona tili ta'limida muqobil javobli testlardan foydalanishning afzalliklari.....	83
Komilova Lola Nasillojevna	



NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARIDA MAQOL VA RIVOYATLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Azimova Nodira Xikmatovna

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Zarmed universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining samarali vositasi sifatida maqol va rivoyatlardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot davomida maqollar va rivoyatlar bolalarning og'zaki nutqini shakllantirish, til boyligini oshirish, estetik va axloqiy tushunchalarni singdirish hamda kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda qanday xizmat qilishi tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: nutq o'stirish, maqol va rivoyatlar, pedagogik texnologiyalar, kommunikativ mahorat, axloqiy qadriyatlar, tilni rivojlantirish, xalq hikmatlari.

Abstract: This article explores the potential of using proverbs and parables as effective tools of folk oral creativity in the development of speech in preschool-aged children. The study analyzes how proverbs and parables contribute to the formation of oral speech, vocabulary enrichment, acquisition of aesthetic and moral concepts, as well as the development of communicative and social skills in preschool learners.

Key words: preschool education, speech development, proverb, parable, folk oral creativity, moral education, communicative competence, aesthetic development.

Аннотация: В данной статье раскрыты возможности использования пословиц и притч как эффективного средства устного народного творчества в развитии речи детей дошкольного возраста. В процессе исследования было проанализировано, как пословицы и притчи способствуют формированию устной речи, обогащению словарного запаса, усвоению эстетических и нравственных понятий, а также развитию коммуникативных и социальных навыков у дошкольников.

Ключевые слова: дошкольное образование, развитие речи, пословица, притча, устное народное творчество, нравственное воспитание, коммуникативная компетентность, эстетическое развитие.

KIRISH

Nutqni rivojlantirish mashg'ulotlari maktabgacha ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, bolalarning og'zaki nutqi, so'z boyligi va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodiga mansub maqol va rivoyatlardan foydalanish orqali bolalarda nafaqat nutq o'zlashtiriladi, balki yaxshi xulq, odob, hurmat va mehnatsevarlik kabi axloqiy tushunchalar ham shakllanadi. Maqollar va rivoyatlar – bu xalq donishmandligining timsoli bo'lib, bolalarga hayotdagi eng muhim saboqlarni obrazli shaklda yetkazadi.

Kichik yoshdagi bolalar so'zlarning badiiy ohangi, takrorlanuvchi tuzilishi va obrazli ifodalar orqali nutqiy jarayonlarni oson o'zlashtiradilar. Shu bois ertaklar, maqollar, topishmoqlar, kichik rivoyatlar yoki hayotiy lavhalar tarbiyaviy faoliyatda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu materiallar bolalarda nutqni rivojlantirish bilan birga ijtimoiy-emosional rivojlanishga, his-tuyg'ularni tushunish va ifodalashga, o'z fikrini muloqot jarayonida erkin bayon etishga ham yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Abu Nasr al-Farobiy (870–950) – “Aql va nutq uyg'unligi” nazariyasi. Farobiy nutqni aql va tafakkur bilan uzviy bog'laydi. Unga ko'ra, og'zaki nutq – bu tafakkurning ifodasidir, uni shakllantirish uchun bolaga mantiqiy va axloqiy mazmunga ega hikmatli so'zlar (jumladan, maqollar)ni o'rgatish kerak. Farobiy nutqni tarbiyaviy vosita sifatida ko'radi. U maqollar va rivoyatlarning nutq va aqlni uyg'un rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslaydi.



Alisher Navoiy – “Til odobi va axloqiy nutq”. Navoiy til va nutq orqali kishining tarbiyasi, ma’naviyati va dunyoqarashi namoyan bo’lishini ta’kidlaydi. Uning asarlarida ko’plab maqollar va hikmatli iboralar bolalar tarbiyasi uchun muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

Ye. I. Tixeyeva – “Ona tili va uni rivojlantirish yo’llari”. Bolalarning og’zaki nutqi va hikoya qilishni o’zlashtirishining o’ziga xos xususiyatlari, dialogik va monologik nutqning o’zaro bog’liqligini chuqur tushunish asosiga qurilgan ravon nutqni o’qitish tizimiga asos solgan. Bolalar hikoyalarining asosini fikr bildirish manbalari tashkil etadi: predmetlarni tavsiflash, adabiy matnlarni hikoya qilib berish, suratga qarab hikoya qilish, shaxsiy va jamoaviy tajribadan misol keltirish hamda ijodiy hikoya qilish.

Ye. A. Flerina (1889–1952) – “Maktabgacha tarbiya muassasalarida jonli so’z”. Flerina og’zaki nutq, suhbat, badiiy o’qish va bolalarga hikoya qilib berish, shuningdek, bolalarning o’zlari hikoya qilib berishlariga e’tibor qaratdi. U badiiy matnni o’quvchiga yetkazishning turli usullarini, jumladan, o’qilgan asar bo’yicha suhbat o’tkazish usulini ishlab chiqqanligi bilan e’tiborga loyiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bog’cha yoshidagi bolalarning nutqiy rivojlanishi ularning fikrlash qobiliyati, ijtimoiy munosabatlarga kirishi hamda kelgusidagi maktabga tayyorlik holatiga bevosita ta’sir qiladi. Amaliy kuzatuvlar va tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, xalq og’zaki ijodi elementlari – ayniqsa maqollar va rivoyatlar – kichik yoshdagi bolalar nutqini boyitishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bolalar bu orqali tovushlarni to’g’ri talaffuz qilish, gap tuzish, so’z boyligini kengaytirish, eslab qolish va qayta ifodalash kabi ko’nikmalarni egallaydilar.

Shuningdek, maqollar va rivoyatlarning qiziqarli va badiiy shakllari bolalarning eslab qolish xotirasini kuchaytiradi, tasavvurini kengaytiradi va ertaklar olamiga bo’lgan qiziqishini oshiradi. Bu esa ularda mustaqil fikrlash, nutqiy faollik va emotsional-intellektual uyg’unlikning shakllanishiga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta’limda maqollar va rivoyatlardan foydalanish bolaning so’zlashuv malakasini rivojlantirish, tilni o’zlashtirishni yengillashtirish hamda axloqiy-tarbiyaviy tushunchalarni shakllantirish uchun ayni muddao hisoblanadi. Bu orqali bola nafaqat “chiroyli so’zlash”ni, balki yaxshilik, mehr, sabr, kattalarni hurmat qilish kabi qadriyatlarni ham o’zlashtiradi.

Masalan, “Mehnat qilgan – to’yadi”, “Yaxshiga yo’liq – yaxshi bo’l”, “Donolik – yoshlikdan” kabi maqollar bolaning ongiga mazmunli obrazlar orqali singdiriladi. Bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, ushbu maqollarni rasm chizish, rolli o’yinlar, ertak ijodi yoki savol-javob orqali mustahkamlash mumkin.

Nutq o’stirish mashg’ulotlarida maqollar va rivoyatlardan foydalanish texnologiyasini o’rganish uchun quyidagi metodologik jadvalni keltirish mumkin.

1-jadval: Nutq o’stirish mashg’ulotlarida maqol va rivoyatlardan foydalanish texnologiyasi

№	Metodologik yondashuv	Foydalaniladigan usul va metodlar	Ma’lumot va manbalar	Natija
1	Ma’naviy-axloqiy tarbiya	Maqol va rivoyatlardan foydalanish orqali axloqiy qadriyatlarni shakllantirish	O’zbek xalq maqollari, rivoyatlar, xalq hikmatlari	O’quvchilarda axloqiy qadriyatlar va jamiyatdagi o’rinlarini tushunish
2	Kommunikativ ko’nikmalarni rivojlantirish	Maqollar yordamida nutqni rivojlantirish, qisqa va aniq ifodalar yaratish	Tilshunoslik asarlari, psixologik nazariyalar	O’quvchilarning kommunikativ mahorati oshadi, nutqni ravon qilish
3	Estetik va badiiy ta’birni rivojlantirish	Maqollar va rivoyatlar yordamida tilning badiiy jihatlarini o’rganish	Adabiy asarlar, xalq og’zaki ijodi	O’quvchilarning badiiy va estetik tafakkuri rivojlanadi
4	Dunyoqarashni kengaytirish	Maqollar va rivoyatlar orqali dunyoqarashni shakllantirish	Xalq og’zaki ijodi, madaniyatshunoslik asarlari	O’quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, madaniyatga nisbatan hurmat shakllanadi.
5	Ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash	Maqollar orqali ijtimoiy qadriyatlar va muloqot madaniyatini o’rgatish	Ijtimoiy psixologiya, axloqshunoslik asarlari	O’quvchilarda ijtimoiy muomala va madaniyatni rivojlantirish
6	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish	Maqollarni turli holatlarda tahlil qilish, mulohaza yuritish	Pedagogik va psixologik metodika	O’quvchilar tanqidiy fikrlash va mustaqil tahlil qilish qobiliyatini oshiradi

Jadvalda keltirilgan metodologik yondashuvlar o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib, har bir metodning maqsadi va natijasi ta'lim jarayonining har bir bosqichida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan.


Maqollar va rivoyatlar xalqning boy madaniy merosi sifatida o'quvchilarga nafaqat til, balki axloqiy, estetik va ijtimoiy jihatlarni ham o'rgatadi. Bu esa o'quvchilarda keng dunyoqarash, to'g'ri muloqot olib borish hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda yordam beradi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim muassasalarida maqollar va rivoyatlardan nutq o'stirish mashg'ulotlarida foydalanish bolalar uchun nafaqat til boyligini oshiradi, balki ularning shaxsiy, axloqiy va estetik rivojiga ham katta hissa qo'shadi. To'g'ri tanlangan va yoshga moslashtirilgan maqollar hamda kichik hajmli rivoyatlar orqali bolalarda tasavvur, muloqot, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy muomala malakalari mustahkamlanadi. Shu bois, maktabgacha ta'limda xalq og'zaki ijodi vositalarini metodik yondashuv bilan qo'llash pedagogik jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Farobiy, A. N. (1993). Fozil odamlar shahri. Toshkent: Sharq nashriyoti.
2. Navoiy, A. (1991). Mahbub ul-qulub. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
3. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'zbekiston.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Xodjaev, A. (2018). O'zbek xalq og'zaki ijodi va uning zamonaviy ta'limdagi o'rni. Toshkent: Ma'naviyat.
6. G'ulomova, S. (2012). Ta'lim jarayonida og'zaki ijoddan foydalanish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.
7. Rahimov, U. (2010). Pedagogik metodlar va o'quvchi nutqini o'stirish. Toshkent: Sharq.
8. Davronov, X. (2017). Ma'naviy tarbiya va ta'limda maqollar va rivoyatlar. Toshkent: Akademnashr.
9. Fazliddinova, N. (2013). Maqollar va rivoyatlarning axloqiy tarbiya tizimidagi roli. Toshkent: Fan.
10. Shodiev, T. (2014). Xalq og'zaki ijodining nutqni rivojlantirishdagi o'rni. Toshkent: TDTU nashri.
11. Sultonova, D. (2019). Maqol va rivoyatlardan ta'limda samarali foydalanish metodlari. Toshkent: Ma'naviyat.
12. Shukurova, M. (2011). O'quvchilarning nutqini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining o'rni. Toshkent: O'qituvchi.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.